

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 5 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№5 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-5>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Yakubova Matluba Tajiboevna SHEVAGA XOS LEKSIK BIRLIKLARNING ERKIN SAMANDAR SHE'RIYATIDAGI BADIY AHAMIYATI.....	8
2. Rayxan Madaminova HOFIZ XORAZMIY "DEVON"IDAGI MA'NODOSH SO'ZLAR TAHLILI.....	17
3. Yangibayeva Nodira, Rahimova Mohigul HAYOT-MAMOT MOTIVINING IKKI XIL BADIY TALQINI.....	25
4. Niyazmetova Shahlo Adamboyevna ULUG'BEK HAMDAM SHE'RLARIDA PARALLELIZMLARNING QO'LLANILISHI VA O'ZIGA XOSLIGI.....	31
5. Pirmatova Ozodaxon Saparboyevna SHOLICHILIK LEKSIKASI VA GURUCHLI TAOM NOMLARINING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI.....	35
6. Jumanyazova Muxabbat Xusinovna XORAZM XALQ QO'SHIQLARI LEKSIKASIDAGI AYRIM SO'ZLARNING ETIMOLOGIYASI XUSUSIDA.....	40
7. Fayzullaeva Rukhshona Lutfulloevna, Melikova Martaba Numonovna INFLUENCE OF GLOBALIZATION ON THE COMMUNICATION PROCESS.....	44
8. Raufjon Maxmudov, Anaxon Vapayeva O'ZBEK VA RUS TILLARI LEKSIKASIDA ENG YANGI QATLAM.....	51
9. Ихтиёр Бабаназаров XII ACP XORAZM ILMIIY-ADABIY MUHOJITI DA MAHMUD ZAMAXSHARIYNING TUTGAN UYRI.....	56
10. Rayxan Madaminova HOFIZ XORAZMIY "DEVON"IDAGI KO'P MA'NOLI LEKSIK BIRLIKLARNING ASARDAGI O'RNI.....	62
11. Abdullayeva Poshshajon Usmon qizi FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA ULARNING O'RGANILISHI.....	69
12. Matyakubova Surayyo Abdullayevna OGAHIYNING TARIXIY ASARLARIDA QO'SHMA FE'LLAR SINONIMIYASI.....	73
13. Xo'jamurodova Iroda Anvar qizi SEMIOTIKA: NAZARIY ASOSLAR VA TADQIQOTLAR.....	78

IQTISODIYOT

1. Karimova Madina

XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI VA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI BAHOLASH.....83

2. Baxtiyarova Sabohat Baxtiyarovna

STRATEGIK MENEJMENTNING O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI TATBIQI.....91

PEDAGOGIKA

1. Davletov Erkaboy Yusbovich

BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA TAYANCH HAYOTIIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI.....95

2. Usanova Zulfiya Bozorovna

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING GENEZISI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI...98

3. Odinaeva Gulshoda Shavkatovna

TARBIYA DARSLARI VOSITASIDA O'QUVCHILARDA IJTIMOIIY DAXLDORLIK TUYG'ULARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI.....102

PSIXOLOGIYA

1. Raximov Bobur, Radjapova Dilnura

SHAXS IJTIMOIIYLASHUVINING PSIXOLOGIK ASOSLARI.....107

TARIX

1. Babajanova Nilufar Alisherovna

QUYI AMUDARYO TARIXIIY-GEOGRAFIK REGIONIDA URBANISTIK JARAYONLAR. AHOLINING JOYLASHISHI VA TARIXIIY TARAQQIIYOT SAHIFASI.....111

2. Bekchanov Doniyor

XORAZM JADIDLARI QARASHLARIDA DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTINI MODERNIZATSIYALASH MASALALARI.....115

3. Tajiyeva Umida Rajabboevna

O'ZBEK XALQII MADANIYATIDA TABIIATGA MUNOSABATNING BA'ZI MASALALARI.....119

4. Tilovboyeva Mardona Aybekovna

O'RTA OSIYO MINTAQASI TABIIY-GEOGRAFIK HOLATI, HUDUDIIY CHEGARALARI MASALALARIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR.....123

5. Исмаилов Улугбек Сапарбой огли

ПРОБЛЕМА ХИЩНИКОВ В ЭКОЛОГИИ ДРЕВНЕГО ПЕРИОДА ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА.....127

6. Rajabova Zuhra Sa'dullayevna, Raximova Intizor Rustamovna

XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHIDA TURKISTONDA TA'LIM TIZIMI TRANSFORMATSIYASINING BA'ZI MASALALARI.....132

7. Marimov Muzaffar Erkinovich XX ASRNING 20-30-YILLARI XORAZM OKRUGIDA SOG‘LIKNI SAQLASH SOHASI VA UNDAGI O‘ZGARISHLAR.....	137
8. Bekchanov Doniyor AVAZ O‘TAR QARASHLARIDA JADIDCHILIK G‘OYALARI.....	141
9. Sultanov Samandar Mahmud o‘g‘li XORAZM VOHASI VA G‘ARBIY SO‘G‘D HUDUDLARINING GEOGRAFIK SHAROITI, HUDUDIIY CHEGARALARI MASALALARI.....	145
10. Abdullayev Abdurasul Abdulpattoevich QUR‘ONI KARIM OYATLARINI TAVIL QILISHDA ISHORIY TAFSIRLARNI O‘RNI.....	149
11. Misrbekova Makhliyo THE REPRESENTATION OF USTRUSHANA’S HISTORY IN NUMISMATIC SOURCES...	155
12. Bekimbetov Bahodir Mirzabaevich YANGI O‘ZBEKISTONDA OROL FOJIASINI HAL ETISHGA YONDASHUVNING TUBDAN O‘ZGARISHI VA UNING NATIJALARI.....	161
13. Xayitmuratova Zaynura G‘aybullayevna QADIMGI MARKAZIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O‘LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI.....	167

Tajiyeva Umida Rajabboevna-

UrDU akademik litseyi katta o'qituvchisi,

Tarix fanlari falsafa doktori (PhD),

E-mail: umidatojieva17@gmail.com

**O'ZBEK XALQI MADANIYATIDA TABIATGA MUNOSABATNING BA'ZI
MASALALARI**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15670149>**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada o'zbek xalqi madaniyatida tabiatga bo'lgan munosabatning tarixiy-etnografik jihatlarini tahlil qilinadi. Qadimiy zardushtiylik ta'limotidan tortib XX asrgacha bo'lgan davrda aholi ongida shakllangan suv, yer, o'simliklarga munosabatdagi xalqona qarashlar, urf-odat va qadriyatlar yoritilgan. Maqolada mustaqillik yillarida O'zbekistonda aholi madaniyatining turli jihatlarini qatori, ekologik masalalarini tarixiy-ilmiy jihatdan o'rganishga oid tadqiqotlar ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston tarixi, Xorazm vohasi, tabiat, yer, suv, dehqonchilik, ekologiya, madaniyat.

Tadjieva Umida Radjabboevna-

Senior Lecturer of the Academic Lyceum of Urgench State University,

Doctor of Philosophy of Historical Sciences (PhD),

**SOME ISSUES OF ATTITUDE TO NATURE IN THE NATIONAL CULTURE OF
THE UZBEK PEOPLE****ABSTRACT**

The article analyzes the historical and ethnographic aspects of the attitude to nature in the culture of the Uzbek people. It highlights the national views, customs and values that have formed in the consciousness of the population from ancient Zoroastrian teachings to the 20th century in relation to water, land and plants. It also examines scientific research conducted during the years of independence of Uzbekistan, dedicated to the historical and scientific study of environmental issues along with other aspects of the culture of the population.

Keywords: History of Uzbekistan, Khorezm oasis, nature, land, water, farming, ecology, culture.

Таджиева Умида Раджаббоевна-

Старший преподаватель академического лицея УрГУ,

Доктор философии исторических наук (PhD),

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ОТНОШЕНИЯ К ПРИРОДЕ В НАЦИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЕ УЗБЕКСКОГО НАРОДА

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются исторические и этнографические аспекты отношения к природе в культуре узбекского народа. В нем освещаются народные взгляды, обычаи и ценности, сформировавшиеся в сознании населения от древних зороастрийских учений до XX века в отношении воды, земли и растений. Также рассматриваются научные исследования, проведенные в годы независимости Узбекистана, посвященные историко-научному изучению экологических вопросов наряду с другими аспектами культуры населения.

Ключевые слова: История Узбекистана, Хорезмский оазис, природа, земля, вода, земледелие, экология, культура.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Bugungi jadal rivojlanish davrida qator ekologik muammolar yechimini topish uchun tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo'lish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Mamlakatimizda islohotlar jarayonida bu masalaga alohida e'tibor qaratilayotir, yer va suv resurslarini asrash, havo musaffoligini ta'minlash, ekologik muvozanatni barqarorlashtirish va shuningdek qishloq ho'jaligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston zaminida yashagan xalqlar mingyilliklar davomida tabiat bilan uyg'un yashash, uning ne'matlarini asrab-avaylash, uni muqaddas deb bilish tamoyillariga asoslangan ekologik madaniyatni shakllantirib kelgan. Qadimiy diniy ta'limotlardan tortib zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurgacha bo'lgan jarayonda xalqning tabiatga bo'lgan munosabati jamiyatdagi axloqiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarning muhim bir qismi sifatida qaralgan. Ayniqsa, suv va yer bilan bog'liq qadriyatlar xalq turmush tarzida chuqur iz qoldirgan bo'lib, ular xalq urf-odatlarini, e'tiqodlarini, marosimlarini hamda kundalik mehnat faoliyatida yaqqol namoyon bo'lgan.

Bugungi kunda global ekologik muammolar fonida ekologik madaniyat va qarashlarning qadr-qimmatini yana-da ortib bormoqda. Ayniqsa, mustaqillik yillarida O'zbekiston olimlari tomonidan xalqning kundalik turmush tarzi, milliy urf-odatlarini, qadriyatlari doirasida ekologik madaniyati keng o'rganila boshladi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Mavzu yuzasidan mustaqillik yillarida O'zbekistonda bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. A.Ashirov tomonidan chop qilingan monografiyada Farg'ona vodiysida yashovchi o'zbeklarning suv bilan bog'liq madaniyati yoritilgan. Muallif jamiyatda suvning ahamiyatini tarixiy, ijtimoiy va madaniy sohalar tutashuvi asnosida tarixiy-etnografik materiallar asosida tahlil qilgan. Asarda turli mafkuralar va siyosiy tuzumlarning ta'siri natijasida suvga bo'lgan munosabatning o'zgarishi va bugungi kunda suvga ehtiyojning oshganligi, ushbu ne'matning qadri beqiyos ekanligiga e'tibor qaratilgan[1].

S.Davletov tadqiqot ishida o'rganilgan masalalari doirasida atrof-muhit muammosining nazariy-metodologik masalalarini tahlil qiladi, Atrof-muhit tarixi – zamonaviy tarix fani va umuman ijtimoiy fanlarning hozirgi davrda tobora rivojlanayotgan mustaqil yo'nalishlaridan biriga aylanganligini hisobga olgan holda ilmiy-pedagogik kadrlarni maqsadli tayyorlash ishlarini yo'lga qo'yish lozimligini qayd etadi[2, 33].

S.Matkarimovanning tadqiqot ishida esa an'anaviy ovqatlanishda ekologik xususiyatlar va ozuqa mahsulotlarini saqlashga oid tajribalar tadqiq etilib, unda an'anaviy ovqatlanishda ekologik xususiyatlar, vohada yetishtiriladigan dehqonchilik va bog'dorchilik mahsulotlari, ularning turlari va shifolik xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, vohada taom tayyorlash va tortish bilan bog'liq uy-ro'zg'or anjomlari hamda ozuqa mahsulotlarini saqlashga doir tajribalar tahlil qilingan[3].

G.K.Valixonovanning maqolasida o'zbek xalqining dehqonchilik madaniyati va xalqning noyob tafakkuri mujassamlangan marosimlar haqida so'z yuritilgan. Dehqonchilik bilan bog'lik urf-odat, marosimlarning chuqur tarixiy ildizlari, ayni paytda diniy qarashlar bilan chambarchas bog'liq ekanligi kabi masalalar tarixiy manbalar asosida tahlil etilgan[4, 102].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Markaziy Osiyo xalqlari ko'p asrlik yerga ishlov berish, suvdan to'g'ri foydalanish tajribasi bilan bir qatorda tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish madaniyatiga ega ham bo'lishgan.

Zardushtiylikda tabiatga, yerga, butun jonzotlarga, daraxt-o'simliklarga mehr bilan qarash targ'ib qilingan. Oddiy mehnatkash inson ulug'langan. Tabiat va uning ne'matlariga bo'lgan ezuq, oqilona munosabat "Avesto"dagi "Dehqonchilikning foydasi haqida" degan maxsus bo'limda izohlanadi. Olamning dastlabki besh unsurlari – yer, olov, tabiat, suv va havo ulug'langan. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, quyosh nurlari jahondagi nabotot va hayvonot olamining hayotini ta'minlaydi. Qo'riq yer ochib, uni bog'-rog'ga aylantirgan odam ilohiyat rahmatiga uchraydi, aksincha, bog'lar, ekinzorlar, sug'orish inshootlarini buzganlar katta gunohga qoladilar.

Atrof-muhitni, ko'cha-ko'yni, butazorlar, o'tloqlarni, yerni iflos qilgan va uni asrash qoidarini buzgan shaxslar "400 qamchi urish jazosiga" giriftor qilingan. Axlatni uy eshigi oldida qo'yan xonadon egasi yoxud ko'chani supurib, supurindini o'z vaqtida olmagan kishi 25 qamchi urish bilan jazolangan. Hovuz va ariqdan nopok ko'za yoki chelakda suv olgan kishiga 5 qamchi urish jazosi berilgan. Ariq va anhor bo'ylarida mol boqish, otlarni bog'lashga ruxsat berilmagan, quduq va hovuz suvlarini iflos qilgan kishilarga katta jarimalar solingan[5, 12].

Darhaqiqat, dehqonchilikning rivoj topishiga o'ziga xos tabiiy-iqlim sharoitlari hamda, aholining o'troq turmush kechirishi ham ta'sir ko'rsatgan. Zero, dehqonchilik madaniyatida xalqning noyob tafakkuri mujassamlangan. Dehqonchilik bilan bog'lik urf-odat, marosimlar chuqur tarixiy ildizga ega. Xalqona islomda va umuman dehqonlar orasida «Bobodehqon» ya'ni dehqonchilik homiysi bilan bog'liq marosimlar shakllangan.

Farg'ona vodiysi qadimgi sug'orma dehqonchilik madaniyati taraqqiy etgan hududlardan biri bo'lgan. Shu bois mahalliy aholi asrlar davomida sug'orma dehqonchilik faoliyatida suvni isrof qilmay foydalanishga oid bilimlarni o'zlashtirib, takomillashtirishga harakat qilgan. Qadimdan farg'onaliklar suvdan ichimlik manbai sifatida foydalanish bilan birga uni shahar va qishloqlarini balo-qazolardan himoya qiluvchi vosita sifatida ham benihoya qadrlaganlar[1, 10]. Suv bilan bog'liq mifologik qarashlar, xalq inonchlari ma'lum bir ma'noda hayotiy va ruhiy ta'sir kuchiga ega bo'lganligi, xalqning biron-bir ehtiyojiga javob berganligi uchun ham bugungi kungacha saqlanib kelmoqda. Bu qarashlarda ko'p asrlar davomida makon va zamon, tabiat va inson o'rtasidagi o'zaro munosabatlar in'ikosi aks etgan[1, 88].

Yerga ishlov berishda ham ajdodlarimiz diniy va taqvimiy an'analarga qattiq amal qilishgan. Yerni chopish, haydash yoki yumshatishda xafta kunlariga alohida e'tiborli bo'lib, bu yumushni shanba kunidan boshlashni ma'qul ko'rganlar. Yakshanba-dehqonchilik uchun yaxshi emas, dushanba esa dehqonchilikka yaxshi, seshanbada ish boshlangan bo'lsa, ziroatga qurt, hayvondan zarar keladi, Chorshanba-dehqonchilikda barokatli kun, payshanba va juma ham dehqonchilik qilmoq yaxshidir. Bunday tushunchalar ajdodlarimizni turli irim-sirimlarga, hosiyatli va hosiyatsiz kunlar borligi ishonganini izohlaydi[6, 102].

Xorazmlik dehqonlar qadimdan almashlab ekishning murakkab usullarini ishlab chiqqanlar, bu ularga vegetatsiya davrida tuproqni tez charchatmasdan deyarli uzluksiz ishlov berish imkonini bergan. Bir qancha sayyohlar Xorazm dehqonlarining o'z dalalaridan unumdorlikni yo'qotmasdan maksimal foyda olish uchun almashlab ekish qobiliyati haqida xabar berishgan. Xorazm vohasi tabiiy shart-sharoitining yana bir xususiyati daryoda suv toshqinlari masalasidir. Bu hodisalar bir tarafdin dehqonchilikda maydonlarni himoya qilish choralari ko'rishni taqozo qilgan bo'lsa, ikkinchi tarafdin suv tanqisligi sharoitida yer maydonlarini sug'orishda undan unumli foydalanishga undagan[7, 122].

V.I.Kozlov ta'biricha, oziq-ovqat majmuasi juda konservativ bo'lib, etnos yoki etnik guruhning ma'lum sharoitlarga ekologik moslashishini ko'rsatadi. Oziq-ovqat majmuasining barqarorligi, birinchidan, iqtisodiy faoliyat barqarorligi, ikkinchidan, ma'lum bir etnomadaniy iste'mol me'yorlari va uchinchidan, etnik guruhlarining uzoq muddatli fiziologik moslashuvi bilan bog'liq holda kechadi[3, 15].

Xorazmda anor va boshqa o'simliklar bilan bog'liq juda ko'p afsona va urf-odatlar mavjud. Chunki vohada mevali daraxtlar yoki ularning ayrim turlari avvalo rag'batlantiruvchi (stimulyator)

sifatida qaralgan, keyinchalik esa hosildorlik timsoliga aylangan. Bunday mevalar qatoriga anor, tut daraxti va ularning mevalari kiradi. Xorazm vohasi aholisining kundalik hayotiga e'tibor qaratsak, o'tmishda ilishtirik o'imligi haqidagi ilohiy fikr uning haqiqiy shifobaxsh xususiyatlari bilan birlashganini ko'ramiz. Ilishtirik nafaqat yovuzlikdan himoya qiluvchi tilsim, balki mahalliy bog'bonlarning fikriga ko'ra, unumdorlik va uzoq umr ko'rishning kafolati hisoblangan. Meva va sabzavotlar bilan bog'liq xalqona qarashlar odamlarni o'simliklarga e'tiborli bo'lishga, ularning foydali va shifobaxsh xususiyatlarini qayd etishga, ularni ekish, parvarishlash va iste'mol qilishda ma'lum tartib va gigiyena qoidalariga amalga qilishga undagan[8, 131].

Insonning ekologik tafakkuri uning yashash joyi, turmush tarzi va jamiyatning tabiatga munosabati bilan chambarchas bog'liq. Bu masala ayniqsa, insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida dolzarb masalaga aylangan. Xatto, jadid mutafakkirlari ham, tabiatga ongli munosabat, milliy boyliklarni avaylab foydalanish zarurligini ta'kidlaganlar. Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida ular mustamlakachilarning tabiatni talon-taroj qilish siyosatini keskin tanqid qilganlar. Xususan, paxta yetishtirishning monokulturaga aylanishi, yem-xashak yetishmovchiligi tufayli chorvachilik inqirozga uchraganini ko'rsatib o'tishgan. Jadidlar milliy matbuotda yer unumdorligini oshirish masalalarini ham ko'targanlar. Masalan, Rauf Muzaffarzodaning "Sadoi Turkiston" da 1914-yildagi 14-sonida bosilgan "Tuproq nadur?" maqolasida "Erning o'stirish quvvatini orttirmoq uchun solinadigan narsalar bordur" deb ta'kidlanadi[9, 69].

XULOSALAR

O'zbek xalqining tabiatga bo'lgan munosabati chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lib, u diniy ta'limotlar, xalqona e'tiqodlar, urf-odatlar va ijtimoiy amaliyotlar orqali avlodlardan avlodga uzatilib kelgan. Sug'orma dehqonchilik madaniyati va suv resurslaridan oqilona foydalanish amaliyoti xalqning tabiat bilan uyg'un yashash tamoyilini mustahkamlagan. Aholi kundalik hayotida mevali daraxtlar, ularning mevalari unumdorlikni ta'minlovchi ko'plab marosimlar bilan bog'liq edi. Shuning uchun Xorazm vohasida anjir, anor va tut mevalarini yetishtirish odamlar orasida keng tarqalgan.

Iqtiboslar / References / Сноски

1. Аширов А. Ўзбек маданиятида сув. – Т.: Akademnashr, 2020.
2. Давлетов С.Р. XX аср иккинчи ярми – XXI аср бошида Ўзбекистондаги экологик вазият ва унинг ижтимоий муаммолари. Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2018.
3. Маткаримова С.М. Хоразм ўзбекларининг анъанавий овқатланиши. Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Урганч, 2021.
4. Валихонова Г.К. Ўзбек халқининг деҳқончилик удумларининг мифологик хусусиятлари // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. – Хива, 2022. №8/3. – Б. 101-103.
5. Адилов З.Ю. Диний манбаларда экологик муаммоларнинг ечими. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати. Бухоро, 2021.
6. Носуриддин Бурхониддин Рабғузий. Қиссаси Рабғузий. 1 китоб.-Т.: Ёзувчи, 1990.
7. Davletov S.Tajiyeva U. Xiva xonligida yer-suv resurslaridan foydalanishning ilg'or tajribalari // Mamun Science 2024, №4, - B. 118-123.
8. Маткаримова С.М. Приметы и поверия связанные с джийдой, унаби и илиштирик // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. – Хива, 2020. №9. – Б. 128-131.
9. Шадманова С. Туркистон тарихи – матбуот кўзгусида (1870-1917 йиллар). – Тошкент: Yangi nashr, 2011.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000